

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA “KONTSEPT”LARNI QIYOSIY TAHLIL QILISHNING O’RNI VA AHAMIYATI

Shaxnoza ALIMOVA

*Termiz davlat pedagogika instituti
“Fakultetlararo xorijiy tillar”
kafedrasi katta o’qituvchisi*

***Annotatsiya.** Dunyo tilshunosligida til taraqqiyotining asosiy manbai hisoblangan kontseptsiyalarning lingvistik xususiyatlari tadqiqiga keng miqyosda e’tibor qaratilib, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo muloqot yo’nalishlari doirasida turli muloqot muhitlarida kechadigan kommunikativ jarayonlarda namoyon bo’ladigan omillar katta qiziqish bilan o’rganilmoqda.*

Ushbu tezisda muallif “kontsept” terminiing kognitiv tilshunoslikda tutgan o’rni va uning o’rganilishi masalalariga to’xtalib o’tib, uning tadqiqot ob’ekti jahatlariga o’z munosabatini bildiradi.

***Kalit so’zlar:** kontsept termini, kontseptualizatsiya masalalari, tafakkur, kognitiv vositalar, birliklar.*

Kognitiv tilshunoslikning tadqiqot ob’ektining markazida kontseptlar – xotirada muhrlangan so’z birliklari, inson ongi va uning ruhiyatida aks etgan dunyoning lisoniy manzarasidir. Kognitiv tilshunoslik namoyondalari har qanday til ma’lum bir kontseptlar tizimidan iborat deb hisoblaydilar. Kontseptlar orqali til sohiblari tashqi dunyodan keladigan ma’lumotlar oqimini idrok etishi, tuzilishini tushunishi, tasniflashi va izohlashlari mumkin.

Ob’yektlarning turkumlanish xususiyati ularni ma’lum bir o’xshashliklari bo’yicha tasniflash imkonini beradi. “Tilning tabiatiga kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qarash bizni nafaqat inson ongida dunyoning mental tasvirini, balki bu tasvirning tartibli ekanligi, bilimlarni ifodalashda tashkiliy tamoyillarni o’z ichiga olganligi, ularning kontseptlar, inson tafakkurida mazmun ifodalovchi tushuncha shaklida mavjudligini ko’rish imkonini beradi”. [1,6-17]

Professor G.M. Hoshimov “Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o’rganilishi, ya’ni kontseptlar vositasida uning in’ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab kontseptual

jarayonlar bilan bog'liq muhim yo'nalishdir" [2] deb ta'kidlaydi. Biz tadqiqotda kognitiv tilshunoslikda ko'p uchraydigan kontseptualizatsiya masalasiga to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Ma'lumki, "kontsept" termini o'tgan asrning 90 – yillaridan beri tilshunoslikda keng qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa-da, kontsept tushunchasi borasida hozirga qadar yaxlit bir umumiy izoh yoki talqinga to'xtalmagan.

"Kontsept" termini va uning analoglari "lingvokulturema", "logoepistema", "mifologema", "noema"lar o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda faol qo'llanila boshlandi [3]. Hozirgi vaqtda "kontseptsiya" termini kognitiv tilshunoslikda eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushuncha sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

Kontsept – tafakkurda muhrlangan asosiy tushunchalardir [4]. Kontsept kontsept bilan ifodalash munosabatida bo'lgan ma'lum lingvistik vositalar to'plamini ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [5]. Kontsept – (lot. – anglash, idrok etish) bu nutqiy birliklar orqali narsalarning ma'nolarini "idrok etish" jarayonidir. [6]

"Kontseptsiya" termini asos vazifasini bajarib, bir nechta ilmiy yo'nalishlarning predmetini qamrab oladi. Birinchi navbatda, tafakkur va anglash, axborotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolarni tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya va kognitiv tilshunoslikni o'z ichiga oladi.

Inson dunyoni va atrof-muhitni murakkablik darajasi turlicha bo'lgan kontseptlar orqali anglaydi va natijada dunyo haqidagi bilimlar tizimi paydo bo'ladi.

Kontseptni shakllantiruvchi omillar quyidagilardan iborat:

- 1) hissiy tajriba, ya'ni, sezgi organlari orqali idrok etish;
- 2) insonning ob'ektiv faoliyati;
- 3) inson tafakkuri natijasida vujudga kelgan kontseptlar asosida paydo bo'ladigan yangi kontseptlar;
- 4) tushunchalarni izohlash va tushuntirish;
- 5) notanish so'zlarning lug'atdagi ma'nolariga murojaat qilish jarayonida yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va eskisini "olib tashlash" natijasida.[8]

Kontsept – shaxsning fikrlash jarayonida ishtirok etadigan mavhum birlikdir. Bu birliklar insonning olgan bilimlari, to'plagan tajribasi natijalarini aks ettiradi. Inson kontseptlar orqali fikr yuritadi. Aytish mumkinki, inson tahlil qilish, taqqoslash, turli kontseptlarni o'zaro bog'lash kabi aqliy operatsiyalarni bajarish jarayonida yangi kontseptlarni tafakkur natijasi sifatida shakllantiradi.

“Kontsept” termini tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, kontseptlarni tadqiq etish bilan shug'ullangan ilk tilshunos olimlardan biri S.A.Askoldov Alekseyevning ilmiy ishlarida kontseptsiyani bilish vositalari o'rnini bosuvchi sifatida belgilaydi va uni aqliy faoliyat natijasi sifatida e'tirof etadi.

“Kontseptlarning tub mohiyatini tushunishning yondashuvi bu – ularning eng ko'p qo'llaniladigan kognitiv vositalar sifatidagi jihatini aniqlashdir. Kontsept – tafakkur natijasida paydo bo'ladigan, aqliy operatsiyalar jarayonida bir xil turdagi ko'plab noaniq narsalarni tushunishning shaklidir...”.

Kontsept biror bir predmetning ba'zi jihatlarini tushunishda analog vazifasini bajara oladi. U turli xil analoglar vazifasini bajarsa-da, sof aqliy operatsiya hisoblanadi. Masalan, matematik kontseptsiyalar bu fikrning dalili bo'la oladi. [9]

D.S. Lixachev “kontseptni” algebraik ifodaning bir turi sifatida, ya'ni og'zaki va yozma nutqda boshqariladigan, ma'noni tushunish uchun butun murakkabligicha qabul qilishga insonga vaqt yetishmaganda, ba'zida esa tushuna olmaganida o'zining tushunganicha boshqacha talqin qilishi (ma'lumoti, shaxsiy tajribasi, kasbi sohasi) nuqtai nazaridan kelib chiqib tariflash taklifini beradi [5]

Ye.S. Kubryakovaning fikriga ko'ra, kontsept – bu bizning ongimizdagi aqliy yoki ruhiy zahiralarning birligi hamda insonning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborotlar strukturasi bo'lib, xotiraning operativ mazmun birligi, mental leksika, miyaning kontseptual tizimi va tili, inson psixikasida aks etgan dunyoning butun manzarasidir. Kontsept – “lisoniy shaklga ega bo'lmagan sof ma'no bo'lib, bu inson tafakkuridagi ilk ma'no va prototipdir”. [1]

N.D. Arutyunova kontseptni real borliqni aks ettiruvchi turli omillardan iborat bo'lgan amaliy falsafiy tushuncha deb hisoblaydi [10].

D.S. Lixachev kontsept – bu alohida yaxlit mazmunga ega bo'lgan va real holatda kichikroq fikrlarga ajralmagan tafakkur birligi, ya'ni, ichki qatlamning elementar tomonidir deb hisoblaydi [5]. “Kontseptlar – fikr va bilimlarning kognitiv asosiy quyi tizimlarini tashkil etuvchi ma'nolardir” [8].

A. Vejbitskaya kontseptni “ideallik” dunyosidan obyekt sifatida taqdim etadi. Muallif “kontsept – bu bilishga oid psixik struktura bo'lib, uning tashkil topish xususiyatlari voqelikni turli xil sifatlar birligida aks ettirish imkoniyatini beradi” [9] deb ta'kidlaydi.

N.F. Alefirenko kontseptni kognitiv (aqliy) kategoriya, bilimlar kvanti, tavsiflovchi-obrazli va baholashga yo'naltirilgan xarakterdagi murakkab, qat'iy strukturaga ega bo'lmagan semantik shakllanish deb hisoblaydi [10].

S.X. Lyapin kontseptni ko'plab yangi ilmiy tushunchalar singari, kognitiv metafora orqali iste'molga kiritiladi deb ta'riflaydi va bu “keng ko'lamli ma'no parchasi”, “borliqning semantik kvanti”, “madaniyat geni” sifatida sharhlaydi [11]. Yu.S. Stepanov kontseptni “inson ongidagi madaniyatning bir bo'lagi” [12] deb hisoblaydi.

Biroq, o'zbek va ingliz tillarida “pora”, “poraxo'rlik” kontseptlarini qiyoslab, ularning kognitiv jihatlari alohida tadqiqotga tortilmagan. Bu esa o'z navbatida, bu mavzuni o'rganishning muhimligini ko'rsatadi. Pora va poraxo'rlik kontseptlarining tadqiqot ob'ekti sifatida tanlanishi, birinchi navbatda quyidagilar bilan izohlanadi:

- pora va poraxo'rlik kontseptlari har qanday davlatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy, maishiy va madaniy hayotining poydevori hisoblanadi, shu bilan birga, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafa va boshqa yo'nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar uchun katta ilmiy manbadir;

- pora va poraxo'rlik kontseptlari o'z interpretatsion doirasida batafsil tahlil qilinmagan katta hajmdagi lingvistik material hisoblanadi va ushbu yo'nalishda monografik planda tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004. - №1. – С. 6 – 17.
2. Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем структур. Tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K.Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari. –Samarqand, 2010.
3. Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике. // Г. М. Хошимов // Систем-структур. Tilshunoslik muammolari: filologiya fanlari doktori, prof. N. K.Turniyozov tavalludining 70-yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari. – Samarqand, 2010.;
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik// Sh.Safarov. – Jizzax: «Sangzor» nashriyoti, 2006.;
5. Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? / A. E. Mamatov // O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari// Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012.
6. Yusupov O'.Q. Kontsept va lingvokulturema atamalari xususida // U.K Yusupov // Qiyosiy-chog'ishtirma, tipologik va umumumiy tilshunoslikning dolzarb muammolari // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon: Jahon inter print, 2010.;
7. Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, kontsept va lingvokulturema atamalar ixususida // U.K.Yusupov /Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2011.
8. Qoraboyev J.B. Ingliz tilidagi «mubolog'a» kontseptini voqealantiruvchi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga o'girish muammolari// J.B.Qoraboyev // Madaniyatlararo va ilmiy-texnik aloqalarda tarjimaning o'rni hamda roli: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – NamDU, 2014.
9. Nosirov O'.T. Rus va o'zbek tillari dunyo lingvistik manzarasida “Yil fasllari” kontseptosferasini aks ettirilishi // fil.f.f.d.(PhD) disser.– Buxoro, 2022 yil, - 154 bet.
10. Лакофф Дж. Когнитивное моделирование: (Из книги «Женщины, огонь и опасные предметы») // Дж. Лакофф // Язык и интеллект. – М., 1995. – С. 143 – 184.
11. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Д.С. Лихачев // Известия АН СССР. – Серия литературы и языка. – 1993. – Т. 52. – Вып. 1. - №1. – С. 3 – 9.
12. Рудакова А.В. Экспериментальное изучение концепта «быт» в русском языковом сознании // А.В. Рудакова // Культура общения и ее формирование. – Вып. 8. – Воронеж, 2000. – С. 88 – 94.

13. Лакофф Дж. Когнитивное моделирование: (Из книги «Женщины, огонь и опасные предметы») // Дж. Лакофф // Язык и интеллект. – М., 1995. – С. 143 – 184.
14. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике // З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж: Истоки, 2001. – 191 с.
15. Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. - С. 267 – 279.
16. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1997. – 411 с.
17. Алефиренко Н.Ф. Фразеологическое значение и концепт // Н.Ф. Алефиренко // Когнитивная семантика: Материалы II Международной школы – семинара по когнитивной лингвистике, 11- 14 сентября 2000 г. / Отв. ред. Н.Н. Болдырев: В 2-х ч. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2000. - Ч.2.- С. 33 – 36.
18. Ляпин С. Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Архангельск, 1997.С.11-35.
19. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры // Опыт исследования. - М., 1997.С.40-43.

O'ZBEK VA FRANSUZ FRAZELOGIYASIDA “OLAMNING LISONIY MANZARASI ” AKSINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Bazorgul GULIMETOVA

UrDU, Xorijiy filologiya fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Inson olam manzarasiga mos ravishda begona madaniyat bilan aloqa qiladi, bu dunyoda o'zining hatti-harakatlarini ruxsat va ta'qiqlar tizimi orqali shakllantiradi. Dunyo modeli shaxs va jamoa uchun hulq-atvor dasturi bo'lib xizmat qiladi, bu inson tomonidan tashqi dunyoga ta'sir qilish uchun qo'llanadigan tadbirlar to'plamini, ulardan foydalanish qoidalarini va ularning motivatsiyalarini belgilaydi.

Ushbu maqolada dunyoning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmning muhim o'rni fransuz va o'zbek tillari misollarida bayon etilgan.

Insonlar o'zaro bir-birini tushunsa va bir-birining ma'naviy dunyosiga kirishsa, ular orasida muloqot paydo bo'ladi. Odamlarning ma'naviy dunyosi kesishuvi ular uchun umumiy g'oyalar tizimi mavjudligi sababli yuzaga keladi. Dunyoning lisoniy manzarasi - ba'zi odamlar orasida va inson faoliyatining madaniy - ijtimoiy jabhalari (ilm - fan, falsafa, san'at va h.k.) orasida o'ziga hos vositachidir.